

## **INGLIZ TILINING TARIXI VA UNING DUNYO BO'YLAB TARQALISHI**

**Yuldoshova Durdona Abdijalil qizi**

Samarqand Davlat Chet tillar instituti talabasi

Gmail: [dyuldosheva07@gmail.com](mailto:dyuldosheva07@gmail.com)

Ilmiy rahbar: **Zubaydova Nilufar Nematullayevna**

**Anotatsiya:** Ushbu maqola ingliz tilining tarixi haqida ma'lumot beradi. Ingliz tilining tarixiy ildizlari juda ham mustahkam bo'lib u kecha yoki bugun yaratilgan emas. Ingliz tili qanday dunyo tiliga aylangani va har bir mamlakatda umumiy til sifatida qabul qilingani, shuningdek savdo va biznes tiliga aylangani keng yoritib berilgan va bundan tashqari ingliz tilining Angliyada taraqqiy etilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, ingliz tili tarixi, global til, biznes va savdo Amerika, Angles. Ingliz tilining tarixi Angliyada boshlangan.

### **KIRISH**

Ingliz tili dunyoda eng ko'p tarqalgan til hisoblanadi – bu tilda so'zlashuvchilar soni taxminan 1,5 milliard kishini tashkil etadi. Ta'kidlash kerakki, ularning aksariyati uchun ingliz tili ona tili emas, balki ikkinchi tildir. Atrofimizda til o'rganuvchi kishilar, ayniqsa, yoshlar ko'payib bormoqda. Qayerga qarasangiz, ingliz tilini o'zlashtirish kurslari tashkil etilgani, o'quv kurslariga taklif, e'lonlarga ko'zingiz tushadi. Mahsulot yorlig'ida, film yozuvlari, reklama pannolari, qo'yinki, ko'p joylarda inglizcha jumlaning uchramiz. Sizda nima uchun ingliz tili dunyodagi eng mashhur til, degan savol tug'ilganmi? Buning sabablari ko'p. Keling, shu haqida biroz so'zlashaylik.

Bulardan asosiy sabablaridan biri tarixiy sabablar bir davr lotin tili ilm-fan va siyosat tili sifatida e'zozlandi. Orada fransuz tili ham ana shunday maqomga ega bo'ldi, 17-asrdan boshlab, Angliya dunyoning ko'plab davlatlari ustidan hukmronlik o'rnatdi va ingliz tili dengizlar osha savdo tiliga aylana boshladi. Barchaga mashhur Ost va Ist-Indiya kompaniyalari kirib borgan hududda aholi inglizcha yashash tarziga ko'nika boshladi. Buning ketidan, bu davlatlar o'rtasida hamdo'stlik tuzilishi, Buyuk Britaniyaga katta harbiy salohiyatini yaratishga imkon berardi.

Amerikada ingliz tilining taraqqiy etilishi. Birinchi Jahon urushini qarz beruvchi mamlakat yetakchilari sifatida boshlagan ingliz siyosatchilari urushdan so'ng, qarzdor davlat boshqaruvchilariga aylandi. 20-asrning ikkinchi yarmida AQShning

davri boshlandi. AQSh eng kuchli mamlakatga aylanib, o'z mahsulotlari bilan jahon bozorlarini to'ldirdi. U ham qachonlardir Angliya mustamlakasi bo'lib, ozod yurt yaratgan kishilar mamlakati edi. Amerikada kompyuter va internet yaratilishi ingliz tilini butun yer shariga tarqalishiga olib keldi. Okean ortidagi hayot tarzi butun dunyo aholisida havas uyg'otib, amerikaliklarga yaqinroq bo'lish uchun ko'plar ingliz tilini o'rgana boshladi.

Ingliz tili savdo va biznes tilida ishlatilishi. Dunyo bo'ylab bitimlarning 90 foizi ingliz tilida tuziladi. Jahon moliyaviy fondlari va birjalari ingliz tilida faoliyat yuritadi. Yirik korporatsiyalar dunyoning har bir chekkasida ingliz tilidan foydalanadi. Garchi ingliz tilida so'zlashmasa ham, xorijiy sarmoyadorlar uchun shu tilda takliflarni ifoda etish ancha qulay va soddaroq. Chet ellik sheriklar (agar u italyan va koreys bo'lsa ham) yozishmalar tili ingliz tilidir. Xalqaro kompaniyalarning ish hujjatlari va xalqaro bitimlar bo'yicha shartnomalar ham xalqaro tilda. 1970-yillardan beri globallashuv va neoliberalizmning kuchayishi bilan turli mamlakatlar o'rtasida misli ko'rilmagan miqdordagi xalqaro savdo va biznes amalga oshirildi. Haqiqat shundaki, boshqa mamlakatdan biznes sherigidan sotib olish yoki sotish uchun siz samarali va to'g'ri muloqot qilishingiz kerak. Yaxshiyamki, global til aloqa to'siqlarini yo'q qiladi, xalqaro savdoni va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini oshiradi.

Qanday qilib ingliz tili dunyodagi global tilga aylandi? 18-asr oxiriga kelib Britaniya imperiyasi ko'plab mustamlakalarga ega bo'ldi. Bundan tashqari, ular butun dunyoda o'zlarining geosiyosiy hukmronligini o'rnatdilar. Shuningdek, ingliz tili ingliz koloniyalarida tez tarqaldi. Texnologiya, fan, diplomatiya, savdo, san'at va rasmiy ta'limning hissasi ham bo'lib, bu ingliz tilining dunyoning haqiqiy global tiliga aylanishiga olib keldi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili dunyodagi eng keng tarqalgan tildir chunki u xalqaro muloqot uchun eng ko'p ishlatiladigan tildir. Global miqyosda ingliz tilida so'zlashuvchilar eng ko'p, ular ingliz tilida birinchi yoki ikkinchi til sifatida gaplashadi. Shubhasiz, dunyodagi boshqa hech bir til o'zining ulkan mashhurligi jihatidan ingliz tiliga tenglasha olmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. U Qo‘ziyev, Tilda soflik masalasi, ta’limda turkiy xalqlar milliy mentalitetini mustahkamlashning dolzarb ..., 2022
2. G. U Rustamova Lingvistik pragmatikaning birliklari, Филологические науки 11, 0.
3. N Dedamirzayeva, U Kuziyev, Teaching English to young learners through games, Oriental Art and Culture, 86-88, 2020
4. U. M Azamatovna, History of development of uzbek and kyrgyz literary terms, e-Conference Globe, 67-69, 2021
5. D Nu‘Monova, U Qo‘Ziyev, Badiiy matnni lingvostatistik tomondan tahlil qilish, Oriental Art and Culture, 119-121, 2020
6. U Kuziev, SY Aslanova, Dictionaries compiled based on navoi’s works, Scientific Bulletin of Namangan State University 1 (6), 319-326, 2019
7. M. A Ubaydullaeva, The history of the development of the terms of literary studies of the turkic peoples, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 ..., 2022
8. M Saidova, UL Qo‘ziyev, Uslubiy qo ‘llanma, Namangan: Kamalak 127, 2017
9. U. Y Kuziev, The issue of classification and description of complex structural compounds in uzbek language, Int J Eval & Res Educ 99 (4), 309-314, 2023.